

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**



**«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET  
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATION YONDASHUVLARI»**

MAHVUSUALA XALQARO I. MUNAQASHI ALG'IMASI



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ  
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE  
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET  
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ  
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE  
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”  
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL  
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi "2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 16-sonli buyrug'i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko'larni kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o'tkazilishini ta'minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida "Ingliz tili nazariy aspektlari", "Ingliz tili va adabiyoti" hamda "Ingliz tili amaliyoti" kafedralari tomonidan "Zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari va chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

**Mas'ul muharrir(lar):**

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

**Tahrir hay'ati:**

f.f.d.prof. D.A.Rustamov

f.f.d.prof. M.I.Umarxo'djayev

PhD. dots. M.A.Qurbanov

f.f.d.prof. G'.M.Xoshimov

f.f.d.prof. V.A.Vositov

PhD. dots. M.G'.Xoshimov

p.f.n. prof. Sh.S.Alimov

PhD. G.M.Ibragimova

PhD. Q.Umrzakov

kafedra o'qituvchisi N.Xamidov

kafedra o'qituvchisi Z.No'monova

**Tahrir nashriyoti bo'limi muharriri:**

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to'plam, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari va chet tillarini o'qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag'ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to'plamdan respublika va xorijiy oliy ta'lif muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o'qituvchilar, doktorantlar, magistrler va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

***To'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar sanasining to'g'rilingiga mualliflarning o'zлari mas'uldirilar.***

***Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil***

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

1. Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. дис. автореф. – Тошкент, 2008. – 24 б.
2. Алпанова Ш. Нутқий фаолият жараёнидаги руҳий ҳолатларнинг ўзбек тилининг турли сатҳ бирликлари воситасида акс этиши. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Фарғона, 2018.
3. Ahmadjonova O. Badiiy asar personajlari ruhiy va jismoniy holatlari tasvirining o'zaro uyg'unlashuvi (Asqad Muxtorning "Tug'ilish" va "Chinor" romanlari misolida). Filol.fan.falsaфа doktori diss.avtoref. – Farg'ona, 2023.
4. Солижонов Й. Бадиий нут поэтикаси. – Тошкент, 2023. –191 б.
5. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: "Фан", 2013.
6. Юлдашева Д. Ўзбек болаларига хос оғзаки ва ёзма матнларнинг антропоцентрик тадқиқи. Филол.фан.доктори (DSc) дисс. – Фарғона, 2022.
7. Yarasheva N. Bolalar adabiyoti tilining lingvokognitiv, lingvopsixologik tadqiqi. Filol.fan.doktori (DSc) diss. – Samarqand, 2023.
8. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқи лексиксининг социопсихолингвистик тадқиқи. Монография. – Тошкент, 2014.
9. Қурбонова С. Бадиий матнда шахс хусусиятларини ифодалаш. Филол.фанлари бўйича фалсафа док.дисс.автореф. – Фарғона, 2018.– 48 б.

ZAMONAVIY YO'NALISHLAR HAMDA ULARNING  
RIVOJLANISH ASOSLARI

*Ro'zimurodova E'zoza Qulmamat qizi  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi  
Ilmiy rahbar Sh.D.Razakova  
Boshlang'ich ta'llim nazariyasi kafedrasi  
nemis tili o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Keyingi yillarda dunyo tilshunosligida tilni undan foydalanuvchi shaxsning nutqiy faoliyati, ruhiyati, ijtimoiy holati, yoshi, jinsi kabilar bilan bog'liq holda o'rghanishga, tilning inson nutqiy faoliyati jarayonida kuzatiluvchi funksional imkoniyatlari tadqiqiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida o'tgan asrning oxirida tilni shaxs omili bilan bog'liq holda o'rghanish metodologiyasiga asoslangan va o'ziga xos tahlil usullariga ega antroposentrik tilshunoslikning turli yo'naliishlari ajralib chiqdi.

**Kalit so'zlar:** antroposntrizm, lingvistika, antroposentrik paradigma, zamonaviy lingvistik matn, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvistik semantika, pragmalingvistika,

**Kirish.** Hozirgi davrda tilshunoslik jadal suratlarda rivojlanib, o'z oldiga yangi muammolarni qo'ydi. Ana shunday muammolardan biri til tizimini antroposentrik paradigma asosida tadqiq etishdir. Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur paradigmadan keyin paydo bo'lgan antroposentrik paradigma tilni undan foydalanuvchi shaxsning nutqiy faoliyati, ijtimoiy holati, ruhiyati, yoshi, jinsi kabilar bilan bog'liq holda

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

o'r ganishga kirishdi, ya'ni tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning shakllanishi til egasi – so'zlovchi shaxs omilini birinchi planga qo'ydi.

Antroposentrizm (yunoncha "antropos" – "inson" so'zidan olingan, lot. "sentrum" – "markaz") - bu ilmiy yo'nalishda uning asosiy muammosi olammarkazi bo'lgan insondir. Antroposentrik ilmiy tadqiqotlarda inson va unga tegishli bo'lgan barcha narsalar (jamiyat, tabiat, madaniyat, bilish va boshqalar) bir-biri bilan chambarchas bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Hozirgi kunda turli xil fanlar (falsafa, ekologiya, tilshunoslik, mantiq va boshqalar) insonni o'zlarining tadqiqot obyekti bilan bog'liq ravishda tadqiq qilmoqda. Shunga qaramay, inson faoliyatining barcha xilma-xilligi va mohiyatini, ularning bilish mexanizmlarini inson faoliyatining asosiy vositasi bo'lgan tilsiz tushunish mumkin emas. Shuning uchun ham "til inson ruhlarining asosiy faoliyatidir, u boshqa barcha turdag'i inson faoliyatining asosidir". "Tillar tufayli millatlar asta-sekin o'ylashni o'rgandilar va fikrlash tufayli ular asta-sekin gapirishni o'rgandilar. Til nafaqat aloqa vositasibalki u inson tabiatini anglashning o'ziga xos kalitidir, millat qadriyatlarini saqlash vositasidir. [1;235] Har qanday xalqning uzoqyillik tarixiy rivojlanish davrida to'plagan hayotiy tajribasi, boshidan kechirgan barcha narsalar va unga saboq bergan barcha narsalar, har xil sharoitlarda olga bilimlari kelajak avlodlarga til yordamida yetkaziladi. Til madaniy-tarixiy tajribani uzatish vositasidir va shuning uchun u tilda so'zlashuvchilarni madaniy an'analari bilan aniqlaydi. Til madaniy boylik va har qanday millat to'g'risida ma'lumotni saqlash vositasi sifatida millatning tarixiy-madaniy o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan etnik madaniy birliklarda (iboralar, maqollar vaso'zlar, epitet, metafora, metonimiya, ramz, taqqoslash va boshqalar) yanada yorqinroq amalga oshiriladi, uning dunyoqarashi va dunyonи anglashning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi.

Keyingi yillarda antroposentrik tilshunoslikning turli yo'naishlari ajralib chiqdi. Kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, etnolingvistika, lingvopoetika, assosiativ tilshunoslik, kompyuter lingvistikasi kabi bugungi antroposentrik tilshunoslikning yo'nalishlarida shaxs omili masalasi tadqiqot obyektining markazini tashkil etadi. Mazkur zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlarining paydo bo'lishi haqida olim Sh.Safarov quyidagicha ta'kidlagandilar: "Fanlar, sohalar integratsiyasi – zamon talabi. Hozirgi kunda "yakka otning changi chiqmas"ligi aniq bo'lib qoldi. Tilshunoslik ham o'z yondoshlari bilan juftlashmoqda...". [ 3;56]

Mazkur paradigma muammolarini tadqiqiga bag'ishlangan ishlardan bittasi "Matnning antroposentrik tadqiqi" (D. Xudoyberanova) nomli monografiyadir. Bunda antroposentrik paradigmaning yetakchi yo'nalishlari: kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya va psixolingvistikaga oid ma'lumotlar va bilimlar asosida o'zbek tilidagi matnlarning kognitiv-semantik, lingvokulturologik, psixolingvistik xususiyatlari ochib berilgan.

Shular bilan birgalikda, antroposentrik paradigma, uning mohiyati, umumiy tavsifi, o'r ganilish muammolarini, o'zbek tilshunosligiga kirib kelishi haqida so'z yuritilgan, birinchilardan bo'lib yaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarga A.Nurmonovning "Mustaqillik davrida o'zbek tilshunosligi taraqqiyoti" asarini, N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiq yo'llarini izlab" maqolasini kiritish



Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

mumkin. Shuningdek, keyingi yillarda sotsiolingvistikaga (til va jamiyat munosabati) oid ko'plab monografiya, qo'llanma, dissertatsiya, maqolalar ham chop etildi. Jumladan, Sh.Usmanova v.b. larning "Sotsiolingvistika" nomli o'quv qo'llanmasi va A.Berdialiyevning "O'zbek sinxron sotsiolingvistikasi" nomli darslik-qo'llanmasida til va jamiyatning o'zaro munosabati, tilning ijtimoiy vazifalari, kommunikatsiya, kummunikativ vaziyat, til siyosati, til me'yori, variativlik va uning turlari, muloqot vositalari: adabiy til, dialekt, sotsiolekt, sleng, argo, jargon, koyne, sotsiolingvistikaning yo'nalishlari, metodlari, billingvizm, interferensiya haqida keng ma'lumotlar berilgan. Antroposentrik paradigma o'zbek tilshunosligiga kirib kelgan yangi yo'nalish bo'lishiga qaramasdan oxirgi yillarda bu haqda ilmiy kitoblar ko'paydi. Antroposentrik yo'nalishning alohida sohalari – lingvokulturologiya, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, kompyuter lingvistikasi bo'yicha ham ko'plab ilmiy adabiyotlar paydo bo'ldi, dissertatsiyalar himoya qilindi. Ayniqsa, bugungi kunda kompyuter lingvistikasi jadallik bilan rivojlanmoqda, chunki hozirgi texnika asrida insonlar uchun kompyuter va mobil vositalar asosiy aloqa quroliga aylanib bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, matn dastlab, asosan, semantik va sintaktik nuqtai nazardan tadqiq etilgan bo'lsa, XXI asrda unga antroposentrik nuqtai nazardan yondashish kuchaydi. Matnga faqat til tizimi unsurlarining nutqqa ko'chirilishi jarayoni mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan muloqot shakli, o'zida muayyan intellekt egasining bilimlarini, lisoniy tafakkurini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi. Demak, antroposentrik paradigmangin kirib kelishi bilan, inson roli, uning nutq paydo bo'lishi va idrokidagi o'rni belgilandi, tadqiq qilindi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.B .234-235
2. Qurbanova M, Yo'ldoshev. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 10.
3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.B.56-59
4. Safarov Sh. Semantika. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.B.8.

### Suggestiv lingvistikaga xos tushunchalar haqida

**Yusupova Shahzoda Tohirjon qizi,  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti doktoranti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola suggestiv lingvistikating yangi tilshunoslik tarmog'i sifatida vujudga kelishini yoritish va ushbu yo'nalishga xos tushunchalar – suggestiya, suggestor va suggerent kabilarni tahlil qilish masalasiga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** suggestiv lingvistika, suggestiya, lingvistika suggestiya, suggestor, suggerent.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

<b>16.</b>	<b>APPLICATIONS OF THE SEMANTIC- PRAGMATIC DISTINCTION</b> <b>Tuhtaeva Shahzoda Oktamovna</b>	<b>64</b>
<b>17.</b>	<b>SOTSIOLINGVISTIKANING METODOLIK JIHATLARI</b> <b>Baxridinova Mutabarxon Adaxamovna</b>	<b>66</b>
<b>18.</b>	<b>ANALYSIS OF THE PROBLEMS OF MODERN LINGUISTICS</b> <b>Ashirova Mashxura Bakjon qizi</b> <b>Sh.D.Razakova</b>	<b>68</b>
<b>19.</b>	<b>CONTEMPORARY ISSUES OF SOCIOLINGUISTICS</b> <b>Afra Khanam</b> <b>Adakhamova Malokhatkhon Nuriddin kizi</b>	<b>70</b>
<b>20.</b>	<b>DUNYO KONSEPTUAL MANZARASIDA VOQELIKNI AKS ETISHI</b> <b>Nasirova Muxayyo Kimsanovna</b>	<b>72</b>
<b>21.</b>	<b>YEVROPA VA ISLOM DUNYOSI XALQ TABOBATIDA GUMORAL NAZARIYA,UNDAGI ATAMALAR VA ULARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI</b> <b>No'monov Muhiddin</b>	<b>75</b>
<b>22.</b>	<b>PSIXOLINGVISTIKANING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI TADQIQI</b> <b>M.Mamajonov</b>	<b>78</b>
<b>23.</b>	<b>ZAMONAVIY YO'NALISHLAR HAMDA ULARNING RIVOJLANISH ASOSLARI</b> <b>Ro'zimurodova E'zoza Qulmamat qizi</b> <b>Sh.D.Razakova</b>	<b>81</b>
<b>24.</b>	<b>Suggestiv lingvistikaga xos tushunchalar haqida</b> <b>Yusupova Shahzoda Tohirjon qizi</b>	<b>83</b>
<b>25.</b>	<b>TURKIY TILLAR ANTROPONIMIYASINING O'RGANILISHI</b> <b>Obobakirova Valizaoy</b> <b>Mamarasulova Feruza</b>	<b>87</b>
<b>26.</b>	<b>Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat, nutqiy akt va pragmatik ma'nno munosabatlari xususidagi konsepsiylar</b> <b>Uliqova Mayluda Sotvoldiyevna</b>	<b>89</b>
<b>27.</b>	<b>Lingvomadaniy kontseptsiyani tahlil qilish usullari</b> <b>Boltayeva Nargiza Raxmatovna</b>	<b>93</b>
<b>28.</b>	<b>YANGI SO'ZLARNING YARATILISHI VA SHAKLLANISHIDA KOGNITIV JARAYONLARNING O'RNI</b> <b>To'rayeva Maftuna Akbar qizi</b>	<b>97</b>
<b>29.</b>	<b>РОЛЬ И МЕСТО КОГНИТИВНО-КОНЦЕПТУАЛЬНОГО ПОДХОДА КАК ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ</b> <b>М.Г.Хошимов</b>	<b>101</b>
<b>30.</b>	<b>DIALOGIK NUTQ VA MANIPULYATIV KOMMUNIKATSIYADA GENDERNING AHAMIYATI</b> <b>Tulanbayeva Shahnozahon Shavkatbekovna</b>	<b>104</b>
<b>31.</b>	<b>MODERN PROBLEMS OF SOCIOLINGUISTICS</b> <b>Murodova Jasminaxon Oybek qizi,</b> <b>Islomova Z</b>	<b>110</b>
<b>32.</b>	<b>Actual problems of general linguistics</b> <b>Tashkulova Feruza</b> <b>Islomova Zarina</b>	<b>113</b>